

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**Boshlang'ich ta'larda bolalarning psixologik xususiyatlarini
o'rghanishda qo'yilgan talab va metodlar (Pedagogika-psixologiya
tadqiqoti misolida)**

**Olimov Temir Hasanovich - Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)**

**Ergasheva Nilufar Erkin-qizi – Osiyo Xalqaro Universiteti 1 –
bosqich magistri.**

ANNOTATSIYA.

KIRISH: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bolalarda kechadigan psixologiya va psixik jarayonlar paydo bo'lishi va rivojlanishi, psixik xususiyatlar qaror topishi, turli xil faoliyat rivojlanishi haqida gap boradi. Pedagogika va psixalogiyada fanida qo'llaniladigan metodlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra umumiy psixologiyadagi metodlarga aynan o'xshash bo'lishi bilan birga, shaxs va jamiyat munosabatlarini ifodalab berishda o'ziga xos metodlarni qo'llash zarur ekanligi tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье говорится о возникновении и развитии психологии и психических процессов у детей начального образования, развитии психических особенностей, развитии различных видов деятельности. Проанализировано, что методы, используемые в науке педагогики и психологии, по своему содержанию в точности аналогичны методам общей психологии, но для выражения отношений личности и общества необходимо использовать конкретные методы.

ANNOTATION. This article talks about the emergence and development of psychology and mental processes in children of primary education, the development of mental characteristics, and the development of various types of activities. It is analyzed that the method, applied and scientific pedagogy and psychology, is similar in content and accuracy to the method of general psychology, but it is necessary to use methods to express the relationship between the individual and society.

Kalit so'zlar: psixika, yosh avlod, umumiy psixologiya, boshlang'ich ta'lim, tug'ma ideyalar, yo'naliish,hissiy, irodaviy, shahsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, harakat tayyorgarligi, o'quv faoliyati, idrok, diqqat, xotira, xayol, o'qish, yozish, pedagogika, muammo, xulq-atvor.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Ключевые слова: психика, молодое поколение, общая психология, начальное образование, врожденные идеи, направленность, эмоциональная, волевая, личностная подготовка, интеллектуальная подготовка, готовность действий, учебная деятельность, восприятие, внимание, память, воображение, чтение, писать, педагогика, проблема, поведение.

Key words: psyche, young generation, general psychology, primary education, innate ideas, orientation, emotional, volitional, personal preparation, intellectual preparation, readiness to act, educational activity, perception, attention, memory, imagination, reading, writing, pedagogy, problem , behavior.

Biz boshlang'ich ta'lilda bolalar psixologiyasini o'rghanar ekanmiz kichik maktab Yoshi 7 yoshdan 11 yoshga bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Kichik maktab Yoshi ham nihoyatda qiyin davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolalar turli xil bosqichlardan o'tadilar. Bular:

- Maktabga moslashish
- O'qish va yozishni o'rghanish
- Yangi muhit va shaxslar bilan tanishish
- Ta'lindagi yangiliklarni o'zlashtirish

Bolalarning psixologiyasi bolalar psixologik rivojlanishi umumiyligi va aksida xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Turli bosqichlarda bu jarayon qanday kechishi uni harakatlantiruvchi kuchlarni va qonunlarni tadqiq qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lilda bolalar psixologiyasi ko'pincha yosh psixologiyasi deb yuritiladi. Boshlang'ich ta'lindagi psixik jarayonlar (nutqiy, ma'rifiy , hissiy, irodaviy, va h . k.) paydo bo'lishi va rivojlanishi psixik xususiyatlar qaror topishi, xilma xil faoliyatning (o'yin , o'qish, mehnat,) rivojlanishi bolalarning shaxs sifatida shakllanishini o'rghanishdan iborat. Bu yosh qamrovida umumiyligi psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullardan foydalilaniladi. Biroq uni qo'llashda o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsni yosh xususiyatlarini o'rghanishda ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Birinch holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtida turli yosh guruhlariga taluqli bo'lgan bolalarga tadbiq qilinadi. Ikkinci holatda (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yil

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

davomida tadqiq qilingan. Bular esa o'z navbatida ular psixologiyasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich sinf bolalarda psixologiya asosan ota – onalarga bolaga va unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborni his qildirish mumkin bo'lgan va mumkin bo'lмаган holatlar o'rgatiladi.

Bu hayotni bolalar ota- onalar ko'zi bilan anglay oladilar. Ota – onaga nima yomon bo'lsa bolalarimiz shuni yomon deb hisoblaydi. Ota- ona kimni yoqtirsa bola ham shu insonni yoqtiradi. Bunday holarlar bolaning 10 – 12 yoshigacha davom etadi. Bu yoshdan keyin bola o'zi qaror chiqarishni boshlaydi. SHunday ekan bolalarning har bir harakati bu- ko'zgudagi sizning va bizning aksimizdir. Kichik mакtab yoshidagi bolalarning psixologiyasini o'rganishga qiziqish 19-asr o'rtalaridan boshlangan. U pedagogika va psixologiya bilan uзвiy bog'liqdir. Uning ma'lumotlari boshlang'ich ta'limda bolalarga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich ta'lim bolalar psixologiyasining asosiy masalasi bola psixik taraqqiyotni o'rganishdan iborat, bu masalani hal qilishda uni tushunturib berish turli xil usullarni o'z ichiga oladi.

Bolalarning mакtabga muvaffaqiyatlari o'qishi va ko'p jihatdan ularning mакtab tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bolalarning o'qish tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

I.- SHaxsiy tayyorgarli. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darjasи. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Muhim baholanadigan faoliyatni bajarishga ya'ni o'quvchi bo'lishga tayyorligi.

II.-Intellektual tayyorgarlik. Idrok va ko'rgazmali obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi, nutqning ma'lum darajada rivojlanganligi , tevarak atrofni mo'ljallay olish, umumlashtirish darjasи – narsa va hodisani farqlay olish ko'nikmasi. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnati haqidagi bilimlar tushuniladi. Bu bilimlar mакtab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin , lekin so'z boyligi ma'lum bir xatti xarakatlarni bajara olish layoqati bolaning mакtabda aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi.

III.- Harakat tayyorgarligi : mayda motorika va katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l , oyoq, tana,)

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

IV. – O'quv faoliyatiga tayyorgarlik: katta diqqat bilan eshitita olish va ko'rsatmalarni bajarish, topshiriqlarni bajarish,

Birinchi marta maktabga kelgan bolalarda hali o'zini to'liq anglash va o'z xatti xarakatlarini anglash juda qiyin. Faqatgina o'qituvchi bolalarga meyorlar qo'yishi, ularning hatti- harakatlarini baholashi, o'z hatti- harakatlarini boshqa bolalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar.

Bir qator ijtimoiy va pedagogic tadqiqotlar shulurni ko'rsatadiki birinchi va beshinchi sinf o'quvchilari jamoaga muamosiz qo'shilishadi. Yuqoridagi barcha muammolarni har tomonlama hal qilish mumkin . Bir bolaga ta'lif va bilim berish jarayonida diqqatni to'g'ri joylashtirishga yordam beradi. Uni ta'limdag'i har qanday muvaffaqqiyatga rag'batlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolalarning maktabga borishida psixologik rivojlanishi va uning xulq atvoridagi o'rni juda katta ahamiyatga ega.

Idrok. Kichik yoshdagi ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari idrokingin o'tkirligi sofligi biloan farq qiladi. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomashabin tariqasida berilganlik bilan ajralib turadi.

Diqqat. Kichik yoshdagi ya'ni boshlang'ich ta'limdag'i bolalarning diqqatining asosiy xususiyatlari xoixshiy zaifligidandir. Kichik maktab yoshdagi bolalar diqqatlarini irodalari va kuchlari bilan bog'lash va ularni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichich yoshdagi ya'ni boshlang'ich ta'lif o'quvchilarida xotira ta'limining ta'sirida ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va manusiga tushunib esda olib qolishi va uning samarasi kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlari bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli boshlang'ich ta'limdag'i bolalarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali va obrazli xotirasi ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Xayol. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xayol muhim psixik bilish jarayonidan biri hisoblanadi. Xayolning faoliyatsiz o'qituvchi gapi rayotgan va darslarda yozilgan narsalarni tasavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib hech qanday o'quv predmetini chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xayoli ularning o'quv faoliyatining

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. SHuning bilan bir qatorda bevosita ta'surotlar (muzey vistavkalarni borib ko'rishi, ekuskursiyalarga borishi, maktab yerlarida islash va boshqalar) ham xayollarni rivojlanтирди.

Xulosa qilib shuni aytamizki boshlang'ich ta'limgagi o'quvchilarda ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'quv faoliyatini ko'nikmalarini shakllanishi, o'z – o'zini boshqarish dunyoni bilish munosabatini shakllantiradi. Bolalar o'z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerakligi haqida xulq – atvor normalarini aniq tushunadi. Xulq – atvor qoidalari o'zining kichik bir ichki talabiga aylanadi. Bolada uyatchanlik xislari paydo bo'ladi. Lekin shunga qaramay boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy jihatlar barqaror emasligi, munosabatlar va kechinmalarning doimiy emasligi xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO 'LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.
9. G.ANORQULOVA, A. KARIMOV. Xorijiy mamlakatlar ta'lif tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnal. 2017- yil 3- son.